

## Raqamli qishloq xo'jaligiga ilk qadamlar

2020 yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida prezident Shavkat Mirziyoev «Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak», - deya ta'kidlagan edi. John Deere kompaniyasi qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha jahondagi yetakchi kompaniyalardan hisoblanadi. John Deere o'zining O'zbekistondagi rasmiy dileri «Landtech» kompaniyasi va institut Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti tashabbusi bilan mamlakatimiz qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga yo'naltirilgan xamkorlikni o'rnatib, yetuk muhandis-mexanik kadrlarni tayyorlash va bunda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha o'qitish dasturlarini ham amalga oshirmoqda. Shu munosabat bilan 30 oktyabr kuni shunday loyiha doirasida institutda jahondagi ilg'or John Deere kompaniyasining O'zbekistondagi rasmiy dileri «Landtech» MChJ mutaxassislari va jaxonga mashxur bo'lgan "Indorama" kompaniyasi vakillari bilan seminar tashkil etildi. Unda John Deere kompaniyasi rasmiy dileri, «Landtech» HK MChJ texnik direktori Nil Kinsi, "Indorama" paxtachilik-to'qimachilik klasterining qishloq xo'jaligi bo'yicha rahbari Pol Regan, institut birinchi prorektori, professor B.Mirzaev, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori professor T.Sultanov, fakultet dekani Q.Shavazov va fakultet jamoasi ishtirok etdi. Bu loyihani o'tkazishdan asosiy maqsad raqamli qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishga va albatta soha bo'yicha o'quv jarayoniga joriy etishdan iborat edi. Tadbir so'ngida professor-o'qituvchilar va magistrantlar o'zlarining savollariga batafsil javoblar olishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati